

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

Haydarova Madina G'Ulom Qizi

NavDPI. Ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(maktabgacha ta'lif) mutaxassisligi magistranti

### **Annotatsiya:**

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ijodkorlik, yaratuvchanlik, bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish kabi malakalarni tarkib toptirishda qo'llaniladigan usullar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodiy qobiliyat, diqqat, xotira, fikrlash, nutq, tasavvur, hissiy-irodaviy, ijodkorlik, yaratuvchanlik, etyud.

### **Аннотация:**

В статье представлена информация о методах, используемых в развитии творческих способностей дошкольников, таких как креативность, креативность, умение применять знания и умения на практике.

**Ключевые слова:** творческая способность, внимание, память, мышление, речь, воображение, эмоционально-волевое, творчество, творчество, этюд.

### **Abstract:**

The article provides information about the methods used in the development of the creative abilities of preschool children, such as creativity, creativity, and the ability to apply knowledge and skills in practice.

**Key words:** creative ability, attention, memory, thinking, speech, imagination, emotional-volitional, creativity, creativity, etude.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni har tomonlama ham jismonan, ham aqlan, ham ma'nан, ham ruhan tarbiyalab rivojlantirish lozimdir. Maktabgacha yoshidagi bolalarni bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy sifatlarni, ijodiy qobiliyatlarini

shakllantirish bugungi kunda har bir ota - ona, va pedagog-tarbiyachilarning birinchi galadagi vazifasidir.

Ijodkorlik qobiliyati insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob'ektiv qonunlari asosida o'z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o'zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongingin faol mahsulidir.

Maktabgacha yoshi ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi. Shu davrda ko'plab sohalarda ilg'or o'zgarishlar yuz beradi, aqliy jarayonlar (diqqat, xotira, hislar, fikrlash, nutq, tasavvurlar) faollashadi, shaxsiy fazilatlar faol rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mashg'ulotlar jarayonida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi asosida olib boriladi. Dastur asosida amalga oshirilgan mashg'ulotlar bolalarda ilm olishga ishtiyoq uyg'otadi, qobiliyat va is'tedodlarni ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Faoliyat jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda bolalar faoliyatlarini barcha qismlarini qamrab oladi. Har bir bola bilan mashg'ulotlar jarayonida yakkama-yakka ishlash, uni ijodiy qobiliyatlarini o'rganish o'quv jarayonida yangicha mazmun olib kiradi. Bolalarda ijodkorlik, yaratuvchanlik, bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish kabi malakalarni tarkib toptirish juda muhimdir. Ana shu muhim talablarni amalga oshirish, mashg'ulotlarni ijodiy tahlil qilish bolalarda ijodkorlik, yaratuvchanlik hislarini shakillantirish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ushbu vazifalarni tajriba-sinovlar asosida amalga oshirishni taqozo etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar bola shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhda ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. O'yin orqali bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish eng yaxshi usul hisoblanadi.

Bolalarning ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- Muammoni qo‘yish yoki muammoli vaziyatni yaratish;
- bolalarga berilgan ijodiy vazifani bajarish;
- ijro jarayonida muammolarni hal qilish;
- bolalar uchun ijodiy maydonni yaratish;
- o‘yin jarayonida mashqlarni puxta o‘rganish;
- etyudlarni bajarish.

Bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish avvalo o‘ziga eng yuqori darajaga ko‘tarilishiga va tabiatan o‘ziga xos qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo‘lishiga imkon beruvchi kuchdir. Ijodiy fikrlash orqali barchaning o‘zlari bilgan bilimlarini tushunish va amalda qo‘llash bilan emas, balki muammolarni hal qilishning yangi, asl usullarini, harakat turlarini kashf etishga qodir.

Maktabgacha yoshdagি bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish nima uchun bunday muhim rol o‘ynaydi? Ijodiy o‘yin va san’at – bola taraqqiyotining muhim qismidir. Biz bola uchun qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish va ijodiy faoliyatni erkin rivojlanishi uchun vaqt ajratish kerak. Bolajonlar nima vazifani bajarsa qurish-yasash, aplekatsiya yopishtirish, qo‘sish q uylash yoki raqslarga tushishsa albatta rag‘batlantirilsa hamda ko‘proq maqtalsa ijobiy natija beradi.

Bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda, bolalarga berilgan topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin.

Birinchi bosqichda bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog-tarbiyachi bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

Ikkinci bosqichda bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da’vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

Uchinchi bosqich — bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir. Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi, buning uchun tarbiyachi gohida o‘yin elementlaridan, o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular bolalar bilan birgalikda sahnalashtirishni xohlaydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib,

bolalar sevinib ketadilar, tarbiyachi ularga qarab murojaat qilayotganidan mamnun bo‘ladi. Agar tarbiyachi mashg‘ulotda o‘yin usulini qo‘llayotgan bo‘lsa, u mashg‘ulot davomida o‘yinda qatnashadigan personaj to‘g‘risida oldindan rejalaشتiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy qadriyat va an’analalarimiz ruhida voyaga yetkazishda ijodiy o‘yinlarning o‘rnini beqiyos hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda zamonaviy ta‘lim berishda maktabgacha yoshdagi bolaga shunchaki bilim berish emas, balki ularni ijodiy tafakkurini rivojlantirish ham muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ta‘lim jarayoniga jalb etish bilan birga ularni mashg‘ulotlarga qiziqtirish va bu jarayonda esa tarbiyachidan bolalarning qiziqishidan kelib chiqqan holda mashg‘ulotga to‘g‘ri yondasha olishi hamda qiziqarli qilib tashkillashtirish talab etiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.
3. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish”. Metodik qo‘llanma. K.Nizomova, T.: 2006.
4. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T.; 2001.
5. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo‘llanma.
6. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. – T.; 2010. – 90 b.
7. Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. “UZACADEMIA”SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165.
8. Ҳайдарова Шахло Нарзуллаевна. Мехрибонлик уйи тарбияланувчиларини оиласвий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. VOLUME #1, ISSUE #1, 2020/XI. 149-154.

**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities  
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

**Date:** 1<sup>st</sup> May, 2023

**ISSN:** 2835-3196

**Website:** econferenceseries.com

9. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(02), 23-27.
10. Хайдарова Ш.Н. ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ВОСПИТАНИКОВ ДЕТСКОГО ДОМА К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ. *Colloquium-journal №8* (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska).